

BADIIY ASAR TILIDA KO‘CHIMLAR
(B.Genjemuratovning «Ukuzdaryo bitiklari» asari misolida)

Sherjanova Fazu Keunimjaevna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

PhD asisstanti 90.654-15-64

Tayanch so‘zlar: Badiiy asar, metafora, metanimiya, snekdoxa, jonlantirish, mubolag'a sifatlash, oksimoron, poetik sintaksis, elipsis, janr, obraz, asar tili

REZYUME

Maqolada qoraqalpoq she'riyatining zabardast vakili B.Genjemuradov she'riyatida qo'llangan badiiy tasvir va ifoda vositalari metafora, metanimiya, snekdoxa, jonlantirish, mubolag'a sifatlash, oksimoron kabilarni mahorat bilan qo'llaganligi tahlil qilindi. Boshqa ijodkorlar kabi shoir she'rlarida ham ko'chim, o'xshatishlar mahorat bilan qo'llanilganligi, qoraqalpoq lirikasidagi ayrim til xususiyatlarini shoir mahorati bilan bog'lab ko'rsatib berishga harakat qilindi.

Badiiy til sohasida mahorat kasb qilmasdan turib, chinakam san'at asarini yaratish mumkin emas. Shuning uchun ham so'z ustalarining mahoratini ularning tili orqali o'rganish ishiga yanada ko'proq e'tibor berish lozim. Yozuvchining mahorati haqidagi gapni tildan boshlash kerak, -degan edi atoqli yozuvchi K.Fedin. Badiiy asar tilini o'rganish haqiqatdan ham, yozuvchining badiiy mahoratini o'rganish masalasining asosini tashkil etadi. Shu sababli ulkan san'atkorlarning hammasi tilga alohida ahamiyat berib kelganlar va badiiy asar tilini asarning qiymatini belgilovchi muhim faktorlardan biri deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham so'nggi vaqtlarda qoraqalpoq adabiyotshunosligida va tilshunosligida badiiy asar tilini tekshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Badiiy asar tili zamonaviy, jonli tilda ijod qilishga shu bilan birga esa, dunyoni tabiiy his etishga, hozirgi kunning fikr uylari va tushunchalari bilan yashashga to'la erk berib quyarkan. Baxtiyor Genjemuradov zamon bilan hamnafas, xalq bilan yonma-yon shoirdir.

Baxtiyor Genjemuradov o'z ovozi, o'z so'ziga ega bo'lgan shoirdir. Bu xususiyatni uning individual so'z qo'llashda ham ko'rish mumkin. Shoirning so'z boyligi juda xilma-xil. Unda arxaik so'zlardan tortib, neologizmlargacha, oddiy so'zlashuv tilidan to poetik so'zlargacha bor. Lekin shularning ichida, faqat, Baxtiyor Genjemuradov ijodiga xos so'z qo'llash mahorati ham borki, bu shoirning o'z ovoziga ega bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Yana shunisi qiziqki, bu xususiyat shoirda har bir davrga xos.

Baxtiyor Genjemurodov yangi hayotimiz qirralarini va kishilar fazilatlarini doimo bahor jilvalari, tabiatning boy ma'nosi, mazmuni, rang-barang libosi orqali ko'rsatadi.

Demak yangi davr ilhomi Baxtiyorni yangicha so'z qo'llashga undadi va uning ijodida so'zlarning obrazli ifodasi o'ziga hos kashf qilindi.

Bugungi qoraqalpoq she'riyati haqida gap ketar ekan, biz I.Yusupov, J.Izbasqanov, Sh.Seytov, S.Ibraximov, F.Mырzabaeva, B.Genjemurodov kabi bir qator qoraqalpoq shoirlarining ijodisiz bu she'riyatni tasavvur qila olmaymiz. Hozirgi kunda mazkur shoirlarning ijodi, asarlari o'rganilib, ular haqida yirik monografiyalar, bir qator kichik ilmiy ishlar yaratildi. Lekin, bu dengizdan tomchi xolos. Ijodkor mahorati bilan bog'lab o'rganilishi lozim bo'lgan qator muammoli masalalar haligacha o'z echimini topgan emas.

Qoraqalpoq adabiyotining yuksalishiga o'zining munosib hissasini qushayotgan B.Genjemurod she'riyatining badiiy tomonlariga, til xususiyatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Chunki, B.Genjemurod bugungi qoraqalpoq adabiyotida munosib mavqega ega. Shoir ijodi kitobxonlarga «Saraton» (1992 yil), «O'q qadalgan oy» (1997), «Oftobning umri» (1996) kabi she'riy to'plamlari hamda o'zbek tilida shoir Rustam Musurmon tarjimai ostida ilk bor chop etilgan «Ukuzdaryo bitiklari» asari orqali yaxshi ma'lum. Baxtiyor Genjemurodov she'rlarida muhabbat (vatanga, millatga, yorga, tarixga, tabiatga) pafosi yetakchilik qiladi. Uning ijodidagi yutuqlari she'rlarni yozish uslubida, yangilikka intilishi va unga erishganligidadir.

Shuningdek, Baxtiyor Genjemurodov adabiy tilimiz qonuniyatlarini puxta bilgan, xalq jonli tilini nozik his etuvchi adibdir. Bular shoirning badiiy tili mahoratida yaqqol seziladi. Xususan, uning har bir leksik boyliklaridan, badiiy tasviriy vositasidan ustalik bilan foydalanishida ular orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini, o'z g'oyasini kitobxonga qay darajada obrazli, aniq va ravshan qilib yetkazishda ko'rinadi.

Badiiy asar g'oyasining ilmiy talqini ko'p jihatdan asar tilini tahlil qilishga bog'liq. Qoraqalpoq she'riyatining til xususiyatlarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib quyar ekanmiz ana shu jihatga e'tibor qaratishga harakat qilamiz. Tahlil uchun shoir B. Genjemurodov she'rlarini olib, uning ijodida she'rning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan badiiy tasvir, jumladan, metafora, metanimiya, sinekdoxa, mubolaga, jonlantirish, oksimoron hamda stilistik figuralardan anafora, epifora, alliteraciya, perifraz, antifraz, gradaciya, sintaktik parallelizm, ritorik soroq gap, inverciya kabi vositalardan o'z ijodida qay darajada foydalangani va o'zi tomonidan ijod qilingan xususiy ko'chimlarini aniqlash va ularning tilni boyitish uchun qushgan hissasini ko'rsatib berishdir. Boshqa ijodkorlar kabi shoir she'rlarida ham ko'chim, o'xshatishlar mahorat bilan qo'llanilgan. Ishimizdagi asosiy maqsadlardan biri shuki, qoraqalpoq lirikasidagi ayrim til xususiyatlarini shoir

mahorati bilan bog‘lab ko‘rsatib berishdir. Lekin poeziya tili murakkab va kam o‘rganilganligi uchun ham ishda ayrim kamchiliklar bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Umuman, qoraqalpoq she‘riyatida nafaqat Baxtiyor Genjemurodov, balki Sag‘inboy Ibragimov, Sh.Seytov, K.Reymov, F.Mirzaboeva kabi zamonaviy shoirlar ijodlari ham badiiy asar tilini o‘rganuvchi tilshunoslar uchun yetarli faktik ma‘lumotlar bera oladi deb o‘ylaymiz.

Badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi. Yozuvchi, ijodkor umumxalq tilidan foydalanar ekan umumodatlangan normadan og‘adi. (yani til unsurlarini odatdagidan o‘zga shakl, ma‘no, tartib munosabatlarda qo‘llaydi) va shu «og‘ish»idan ma‘lum badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutadi. Bu xil og‘ishlar tilning turli sathalarida-fonetik, morfologik, leksik va ifoda vositalari ijodkorining muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og‘ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to‘laqonli bo‘lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Tilimizdagi mavjud so‘zlar emotsional buyoqdorligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Kuchimlar odatda she‘riy nutqni boyitadi, unda yangi mazmunni ifodalovchi yangi so‘z yoki so‘z birikmasini yaratadi. Shoir kuchimlar vositasida fikrni yorqin ifodalaydi va uni o‘quvchi ongiga ta‘sirli qilib etkazib beradi. «Ikki predmet yoki hodisani chog‘ishtirish, o‘xshatish troplarga asos qilib olinadi. Yani predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi ko‘chiriladi, o‘xshatiladi»

Ma‘lumki, nutq jarayonida bir so‘zlarni o‘z ma‘nosida yoki ko‘chma ma‘noda qo‘llashimiz mumkin. So‘zning odatiy ma‘nosidan o‘zga ma‘noda qo‘llanishi semantik sathdagi og‘ish sanaladi. Ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan so‘zlarning umumiy nomi trop (ko‘chim) deb yuritiladi. So‘z ma‘nosi ko‘chishi-tropning metafora, metanimiya, sinekdoxa, kinoya kabi bir qator ko‘rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo‘llanilgan ko‘chimlar ishlatilish darajasi, ta‘sirdorlik darajasi kabi jihatlardan bir-biridan jiddiy farqlanadi. Lekin ko‘chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan «kun botdi», «soat yuriyapti» kabi birikmalarda so‘z ma‘nosi ko‘chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko‘nikib ketganmizki, hozirda ularga ko‘chim sifatida qaramaymiz ham. «Badiiy asar matnida mazkur ko‘chimlar qo‘llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik satxda og‘ishga yo‘l qo‘ygan deya» olmaymiz, zero ular muallif tomonidan tayyor holda olingan. Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, bu hildagi kuchimlar matnda estetik funksiya bajarmaydi. Ularni badiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Lekin ijodkor tomonidan tayyor holda olingan, biroq badiiy adabiyotda an‘anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko‘chimlar ham uchraydi. Masalan, «shakar lab», «sarv qomat», «kamon qosh» kabi. Bu kabi ko‘chimlar ham yuqoridagi ko‘chimlarimiz kabi

tayyor holda olinadi, biroq ular matnda ma'lum bir estetik funksiyani bajaradi. Tasvir va ifodaviylikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Badiiy metafora shoir ijodi mahsuli. «O'zbek tili stilistikasi» darsligida keltirilishicha, badiiy metafora bilan lingvistik metaforani bir-biridan farqlash lozim. Agar metafora predmetning doimiy nomiga aylanib qolgan bo'lsa, u tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'ladi. Masalan yoy-asli yomg'ir yoqqandan so'ng osmonda paydo bo'ladigan yarim doira shaklidagi yorug' chiziq. Uning nomi tarixiy jihatdan ov quroliga ham o'tgan. Umuman, olganda bugungi o'zbek she'riyatida metaforik tafakkur yetakchidir:

Bilmadim, bilmadim. Tiyaqsiz banda-
Ollohga gunohkor odam otaday
Beklik-behishtlikdan quvildim men ham,
Yuraginga sog'inch-tig' botadi-ey [1:35]

Shoir sog'inchni tig'ga uxshatyapti. Tig' yaralagani kabi sog'inch ham, uni yaralaydi. Bu kabi metaforik fikrlar shoir ijodida ko'plab uchraydi.

Ko'chimning yana bir turi sinekdoxadir. U yunoncha «synekddoche» so'zidan olingan bo'lib, birga anglamoq, qo'shib fahmlamoq ma'nolarini anglatadi. Aslida, sinekdoxa metonimiyaning bir turi. Sinekdoxaga metonimiyaning bir ko'rininshi sifatida qaralishiga sabab shuki, bunda ham aloqadorlik asosida-butun va qism, yakka va aloqasi asosida ma'no ko'chishi yuz beradi. Shu bois ham unga metonimiyaning bir ko'rininshi sifatida qaraydilar. B.Genjemurodning «Oh, Xudoy» she'ridan:

Etmishga kirganda bolali bo'lib,
Chol-kampir yig'ladi yuragi to'lib:
-Tirnoqqa zor edik, ko'rding xudoyim!
Tirnoqqa zor edik berding xudoyim! [1:22]

Bu o'rinda tirnoq so'zi sinekdoxadir. Shoir bu erda tirnoq so'zi orqali farzandni nazarda tutyapti. Yani, qism orqali butunni ifodalayapti.

Yoki:

Ulug' turkning bugungi jujuqlari
O'kuzdaryoni nuxtalab, ikki shoxin boltalab sindirgan. [1:25]

degan satrlarda ham «Turkning bugungi jujuqlari» deganda, turkiy xalq nazarda tutilayotgani aniq.

O'xshash ko'chimlardan yana biri sifatlashdir. Sifatlash badiiy adabiyot tilida predmet, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-hislatlarini aniqlash-izohlash, tavsiflash usuli. Sifatlovchi so'z aniqlanmish so'z bilan birikib, o'z belgilarini aniqlaydi. Masalan:

Qirq hayolning qirq ming jilvasi
Rom eta olmagan metin yuragim... [1:29]

Ushbu satrlardagi ostiga chizilgan «qirq hayol», «qirq ming jilva», «metin yurak» birikmalari sifatlashdir.

Xulosa qilib aytganda ko‘chimlar badiiy asarga o‘ziga xos joziba, ta’sirdorlik, bo‘yoqdorlik kabi ko‘plab rang-barang fazilatlarni beradi. Quyosh tomchida akslanganidek, san’atkorning badiiyati qudrati alohida olingan birgina tropda o‘zini namoyon eta oladi.

Shoir badiiy tasvir va ifoda vositalaridan metafora, metanimiya, snekdoxa, jonlantirish, mubolag'a sifatlash, oksimoron kabilarni o‘z she’rlarda mahorat bilan qo‘llagan. Bu shoir leksikasining boyligini, uning badiiy mahorati yuksakligini ko‘rsatadi.

Til jamiyat ko‘zgusi hisoblanib, ma’lum ma’noda shoir B.Genjemurodov she’rlari ham qoraqalpoq she’riyati imkoniyatlarini namoyish eta oldi. Shoir yangi obrazlar yaratishda badiiy tasvir va ifoda vositalaridan unumli foydalanib, qoraqalpoq tilining boy til ekanini yana bir karra isbot qilib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Genjemuratov B. Ukuzdaryo bitiklari. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi
2. Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006.
3. Yo‘ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.
4. Yo‘ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11.
5. Yo‘ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11